

SIFATLI TA'LIMGA YONDASHUV

Pirmatova Nurshat Reyimberdiyevna

Shayxontohur tumani kasb-hunar maktabi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *fan va texnika, ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma.*

Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlari [1-5] da o'z aksini topgan. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Zamonaviy dunyoda ta'limni rivojlantirish va uni isloh qilish vazifalarini belgilashda uning sifatini ta'minlash masalalari ustuvor o'rin tutadi. Jamiyatini modernizatsiya qilishning zamonaviy tendensiyalari nuqtai nazaridan o'quvchilarning ta'lim sifatini boshqarish muammosida ta'lim sifatini oshirish muhim bo'lib, yildan-yilga uning dolzarbligi ortib bormoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim sifati muammosi murakkab va keng qamrovli masala. Ushbu muammoni ochib berish uchun tadqiqotning asosiy tushunchalari – "ta'lim" va "sifat"ga murojaat qilish kerak. "Ta'lim" tushunchasi juda keng talqin qilinadi. Shuningdek, ta'lim uni tashkil etishning turli – shaxsiy, institutsional, mintaqaviy, davlat darajalarida ham ko'rib chiqiladi. E. Gusinskiy o'z konsepsiyasida ta'lim tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Ta'lim – bu shaxsni madaniyatga o'rgatish, uning tillarida savodxonlik va uning matnlarida yo'naltirilganlikni egallashi jarayonidir". Uning boshqa ta'rifi quyidagicha: "Ta'lim – bu dunyo haqidagi tushunchalar, g'oyalar tizimini yaratish, shakllantirish va rivojlantirish jarayoni va natijasi bo'lib, u maqsadga intilish imkoni beradi".

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va

vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni muntazam o'rganib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi muhim. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturi mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak pedagoglarda zaruriy bilim, muhim qonuniyat va ko'plab fundamental tushunchalarni chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

A.O.Tatur ta'limni asosiy tizimlar shaklida ifodalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy institut sifatida ko'rib chiqadi: [1] ta'lim mazmunini shakllantirish tizimi (nimani o'qitamiz?); [2] o'quv faoliyatini tashkil etish tizimi (qanday o'qitamiz?); [3] ta'lim sifatini baholash tizimi (natijada nimaga erishamiz?) [6] Ma'lumki, o'quvchilarning bilim olish tezligi individualdir. Ba'zi o'quvchilar bilimlarni tez, boshqalari sekin o'zlashtiradilar, lekin ularning yutuqlari bir xil ko'rsatkichlar (bilim hajmi, ijodiy faollik, mustaqillik) bilan tavsiflanishi mumkin. Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan paradigmasi ta'lim sifatining oshishiga olib keldi. Ushbu yondashuvning mazmuni o'quvchilarning ma'lum mezonlarga ko'ra guruhlarga bo'lingan muammolarni yangi usulda hal qilish qobiliyatidan iborat: – tanlagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish bilan bog'liq muammolar; – zarur ma'lumotlarni qidirish, tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatiga qarab qaror qabul qilish uchun axborot bazasi bilan bog'liq muammolar; – normalar va qoidalarning, ba'zan vaziyat xarakteridagi harakatlarini hisobga olgan holda qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishning huquqiy asoslari bilan bog'liq muammolar; – maqsadlarni amalga oshirish va o'z faoliyatini o'zo'zini tashkil etish yoki boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlar asosida qabul qilingan qarorni amalga oshirish bilan – faoliyat natijalarini baholash bilan bog'liq muammolar va birinchi navbatda, baholash mezonlarini aniqlash bo'yicha shakllangan ko'nikmalar asosida shaxsning ularni mustaqil ravishda baholash qobiliyati.

Sifatli ta'lim shaxs va jamiyat rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. U odamlarni muvaffaqiyatli va baxtli hayot kechirish uchun zarur bilim, ko'nikma va qadriyatlar bilan ta'minlaydi. Sifatli ta'lim, shuningdek, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Sifatli ta'limni ta'minlash uchun bir nechta asosiy omillarga e'tibor qaratish zarur. Bularga malakali va g'ayratli o'qituvchilar, zamonaviy o'quv dasturi, resurslar va texnologiyalardan foydalanish, inklyuziv ta'lim muhiti, doimiy baholash va takomillashtirish jarayonlari kiradi. Shuningdek, o'rganishga bo'lgan muhabbatni uyg'otish va umrbod ta'lim olish imkoniyatini yaratish ham muhimdir. Sifatli ta'limga sarmoya kiritish orqali biz odamlarga o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, o'z hamjamiyatiga hissa qo'shish va dunyoda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam bera olamiz. Keling, har bir inson sifatli ta'lim olish va o'sish va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan kelajakni yaratish uchun birgalikda harakat qilaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr O'RQ-637-son
2. Абдуллаева, Ш. А. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ. Редакционная коллегия, 459.
3. Abdullayeva G.A. QUALITY OF EDUCATIONAL WORK IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM AS A PROBLEM // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/quality-of-educationalwork-in-the-general-secondary-education-system-as-a-problem> (дата обращения: 10.05.2023).
4. G.M.Anorqulova "Ta'lim texnologiyalari"-Toshkent:"Innovatsiya- Ziyo" 2021-yil 3-bet